

**Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tizimidagi Toshkent shahrida joylashgan Prezident, ijod, ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarining o‘quvchilariga “Vatan tayanchi” ko‘krak nishoni va guvohnomalarini topshirish marosimi yuzasidan**

**PRESS-RELIZ**

**2024-yil 25-sentyabr kuni** Toshkent shahridagi Qurolli Kuchlar muzeyi hududidagi “Vatanga qasamyod” yodgorligi yonida Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tizimidagi Prezident, ijod, ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlar(Toshkent shahrida joylashgan)da tashkil etilgan “Vatan tayanchi” guruhlari a’zolariga “Vatan tayanchi” ko‘krak nishoni va guvohnomalarini tantanali topshirish marosimi o’tkazildi.

Tadbirda O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi rahbariyati, mas’ul xodimlari, tizimdagи mактаблarning chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fani o‘qituvchilari, “Vatan tayanchi” bolalar va o‘smirlar harbiy-vatanparvarlik harakati a’zolari (**160 nafar**) hamda ota-onalar ishtirot etdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Vatan tayanchi” bolalar va o‘smirlar harbiy-vatanparvarlik harakati faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 2022-yil 2-martdagи PQ-150-son Qarori, 2024-yil 1-apreldagi “**Ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog‘ini kengaytirish va ularing faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida**”gi PF-55-son Farmoni ijrosi doirasida Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tizimidagi maktablarda o‘quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning yangi tizimi joriy qilingan. Shu bilan birga Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik sinflarini jihozlash ishlari olib borilgan. Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fani o‘qituvchilari va “Vatan tayanchi” bolalar va o‘smirlar harbiy-vatanparvarlik harakati a’zolari maxsus formalar bilan ta’minlangan.

**Ma’lumot o‘rnida,** Agentlik tizimidagi ta’lim maskanlarida chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fani o‘qituvchisi rahbarligida tarkibi 20 nafar 10-11-sinf o‘quvchilaridan iborat bo‘lgan “Vatan tayanchi” guruhlari tuzilgan bo‘lib, ularning faoliyati “Vatan tayanchi” bolalar va o‘smirlar harbiy-vatanparvarlik harakati tomonidan muvofiqlashtirib boriladi.

**Axborot xizmati**

**(99 875 03 12)**